NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

JAHON VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FUNKSIONAL SINTAKSISNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Abduraxmanov Shavkatjon Ashurovich,
NamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan funksional sintaksisning shakllanishi va rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sintaktik birliklarni faqat formal-strukturaviy jihatdan emas, balki ularning kommunikativ, semantik, pragmatik, kognitiv va diskursiv funksiyalari bilan uzviy aloqada o‘rganish masalasi yoritiladi. Praga lingvistik maktabining funksional gap perspektivasi, sistem-funksional grammatika, Amerika funksionalizmi hamda funksional-semantik maydon nazariyasining asosiy tamoyillari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, funksional sintaksisning o‘zbek tilshunosligida shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari funksional sintaksis sintaktik shakl, ma’no va funksiyaning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan kompleks metodologik yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *funksional sintaksis, sintaktik birlik, aktual bo‘linish, tema, rema, kommunikativ dinamizm, funksional-semantik maydon, valentlik, aktant, kognitiv sintaksis, diskurs, sistem-funksional grammatika.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СИНТАКСИСА В МИРОВОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования и развития функционального синтаксиса в зарубежном и узбекском языкознании. Основное внимание уделяется изучению синтаксических единиц не только с формально-структурной точки зрения, но и с учетом их коммуникативных, семантических, прагматических, когнитивных и дискурсивных функций. Сопоставительно анализируются основные положения Пражской лингвистической школы, системно-функциональной грамматики, американского функционализма и теории функционально-семантического поля. Особое внимание уделяется формированию функционального синтаксиса в узбекском языкознании и перспективным направлениям его дальнейшего исследования. Результаты исследования показывают, что функциональный синтаксис представляет собой комплексное методологическое направление, основанное на интеграции синтаксической формы, значения и функции.*

Ключевые слова: *функциональный синтаксис, синтаксическая единица, актуальное членение, тема, рема, коммуникативная динамика, функционально-семантическое поле, валентность, актант, когнитивный синтаксис, дискурс, системно-функциональная грамматика.*

THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FUNCTIONAL SYNTAX IN WORLD AND UZBEK LINGUISTICS

Abstract: *This article examines the theoretical and methodological foundations of the formation and development of functional syntax in foreign and Uzbek linguistics. Particular attention is paid to the study of syntactic units not only from a formal and structural perspective but also in relation to their communicative, semantic, pragmatic, cognitive, and discourse functions. The main principles of the Prague Linguistic School, systemic functional grammar, American functionalism, and the theory of functional-semantic fields are comparatively analyzed. The article also examines the formation of functional syntax in Uzbek linguistics and identifies promising directions for its further development. The results demonstrate that functional syntax is a comprehensive methodological approach based on the integration of syntactic form, meaning, and function.*

Keywords: *functional syntax, syntactic unit, functional sentence perspective, theme, rheme, communicative dynamism, functional-semantic field, valency, actant, cognitive syntax, discourse, systemic functional grammar.*

KIRISH(Introduction)

Zamonaviy lingvistikaning rivojlanish tendensiyalari til birliklarini ularning faqat formal tuzilishi asosida emas, balki nutq jarayonidagi vazifasi, kommunikativ imkoniyatlari, semantik mazmuni, pragmatik xususiyatlari va kognitiv asoslari bilan birgalikda tadqiq etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, funksional sintaksis sintaktik birliklarning shakl va mazmun munosabatini, ularning nutqdagi funksional imkoniyatlarini hamda kommunikativ vazifalarini aniqlashga yo‘naltirilgan muhim nazariy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Funksional sintaksisning shakllanishi bir necha ilmiy maktablar va nazariy konsepsiyalar bilan bog‘liq. Xususan, Praga lingvistik maktabida gapning aktual bo‘linishi, tema-rema munosabatlari va kommunikativ dinamizm masalalari izchil ishlab chiqilgan.[1;59-67].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Chex lingvistlari J. Firbas funksional gap perspektivasini kommunikativ dinamizm tushunchasi bilan bog‘lagan bo‘lsa, F. Danes esa gapning funksional tuzilishi va matn strukturasi o‘rtasidagi munosabatni tadqiq etgan.[2,34] J.Firbasning funksional gap perspektivasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari tema, kontekst, semantik omil va so‘z tartibining kommunikativ jarayondagi rolini qamrab oladi.[2,35] London maktabida esa sintaktik birliklarning kommunikativ va funksional tabiati alohida ahamiyat kasb etdi. M.A.K. Holliday tomonidan ishlab chiqilgan sistem-funksional grammatika tilni ijtimoiy faoliyat vositasi sifatida ko‘rib, grammatik birliklarning nutq va diskursdagi funksiyalarini izohlashga imkon beradi [4,19]. Holliday va Matsiyessenning sistem-funksional grammatikaga bag‘ishlangan fundamental asari grammatikani diskurs bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish tamoyiliga asoslangan. Shu jihatdan funksional sintaksisni o‘rganish o‘zbek tilining sintaktik tizimini zamonaviy lingvistik metodologiya asosida tadqiq etish, sintaktik shakllarning kommunikativ qiymatini aniqlash va ularning matn hosil qilishdagi imkoniyatlarini ochib berish uchun muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqotning metodologik asosini funksional, kommunikativ, semantik, qiyosiy va diskursiv yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda jahon va o‘zbek tilshunosligida funksional sintaksisga oid nazariy qarashlarni tizimlashtirish va ularning o‘zaro munosabatini aniqlash maqsadida qiyosiy-tahliliy metod, funksional-kommunikativ tahlil, funksional-semantik maydon metodi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Funksional sintaksisning nazariy shakllanishida Praga lingvistik maktabining o‘rni alohida ahamiyatga ega. V. Matsesiyus tomonidan ilgari surilgan gapning aktual bo‘linishi konsepsiyasi sintaktik strukturaning kommunikativ tashkil etilishini izohlash imkonini berdi. Keyinchalik J. Firbas va F. Danes tomonidan ushbu yo‘nalish rivojlantirilib, tema-rema munosabati, kommunikativ dinamizm va gapning matn tarkibidagi funksional xususiyatlari chuqurlashtirildi[3,106] J.Firbasning konsepsiyasida gap komponentlarining kommunikativ yuklamasi bir xil emasligi,aksincha, sintaktik birliklar kontekst, semantik omillar va so‘z tartibi bilan bog‘liq holda turlicha kommunikativ dinamizmga ega bo‘lishini ta’kidlagan. Firbasning tadqiqotlarida so‘z tartibi va funksional gap perspektivasi o‘rtasidagi munosabat alohida bob sifatida yoritilgan [2,47]. Keyinchalik, J. Firbas ta’limotining davomchisi sifatida F. Danes funksional gap perspektivasini matnning tashkil etilishi bilan bog‘lab, gaplararo mazmuniy va kommunikativ aloqalarga e’tibor qaratgan [3,128]. Uning «Matnning tarkibi va gapning funksional perspektivasi» nomli tadqiqotida ham gapning aktualligini belgilovchi omil matn sintaksisi bilan uzviyligini ko‘rsatadi.

Funksional sintaksis rivojida M.A.K. Holliday tomonidan ishlab chiqilgan sistem-funksional grammatika alohida o‘rin tutadi. Ushbu konsepsiyada grammatik shakllar kommunikativ vazifalar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Til tizimi insonning ijtimoiy faoliyati jarayonida ma’no yaratish vositasi sifatida qaraladi [4,31]. Holliday va Matsiyessen tomonidan ishlab chiqilgan sistem-funksional yondashuv grammatikani diskursdan ajratib emas, balki real nutq faoliyati bilan bog‘liq holda tahlil qilishni taklif qilgan. Mazkur yondashuv funksional sintaksis uchun muhim metodologik asos bo‘lib, sintaktik qurilmaning «qanday tuzilganligi» bilan bir qatorda «nima uchun aynan shu shaklda qo‘llanganligi» masalasini ham tadqiq etishga imkon yaratadi.

Amerika lingvistika maktabida Ch. Fillmore, P. Hopper va S. Tompson tadqiqotlari sintaksisning semantik va diskursiv jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ch. Fillmore tomonidan ishlab chiqilgan kelishik (sabab-oqibat) grammatikasi sintaktik birliklarning semantik rollari va argument tuzilishini o‘rganishga asos yaratdi [5,13]. Kopper va Tompson esa tranzitivlikni faqat grammatik obyektning mavjudligi bilan cheklamay, uning diskursdagi funksiyasi bilan bog‘ladilar. Ularning tadqiqotlarida yuqori tranzitivlikning eng quyi nuqtasi, past tranzitivlikning esa kelib chiqishi bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Shunday qilib, Amerika funksional tilshunoslik yo‘nalishida sintaktik struktura semantik rollar, aktantlar, tranzitivlik va diskurs funksiyalari bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Rossiya lingvistika maktabida funksional sintaksisning rivojlanishi A.V. Bondarko, G.A. Zolotova, N.Y. Shvedova va boshqa olimlarning tadqiqotlari bilan bog‘liq. Ayniqsa, A.V. Bondarko tomonidan ishlab chiqilgan funksional-semantik maydon konsepsiyasi grammatik kategoriyalarni ularning formal shakllari emas, balki ma’no va funksiyalarining yaxlit tizimi sifatida tadqiq etishga imkon beradi [6,18]. Bondarkoning «Funksional grammatika: Maydon yondashuvi» asarida funksional-semantik maydonlarning strukturaviy turlari va grammatik funksiyalar tizimli ravishda yoritilgan. Bondarko grammatik ma’noni faqat bitta grammatik shakl orqali emas, balki turli til vositalarining birgalikdagi tizimi orqali ifodalanishini ko‘rsatadi. Masalan, zamon maydoni tarkibida: morfologik shakllar; yordamchi fe’llar; leksik vositalar; sintaktik konstruksiyalar birgalikda ishtirok etishi mumkin.

Shuning uchun maydonning markazida odatda grammatik ma’noni eng bevosita ifodalovchi vositalar, periferiyasi (chegara)da esa shu ma’noni bilvosita yoki boshqa vositalar yordamida ifodalovchi birliklar joylashadi. Bondarko nazariyasida funksional-semantik maydon faqat morfologiya hodisasigina emas, balki u morfologik, sintaktik, leksik va kontekstual vositalarning funksional birligi sifatida qaraladi. Masalan: Men kitobni o‘qidim. Bu gapda subyekt, obyekt, predikat o‘rtasidagi munosabat sintaktik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Bu yerda quyidagi tamoyil juda muhim: grammatik kategoriya → uning semantik mazmuni → mazmunni ifodalovchi turli til vositalari → funksional-semantik maydon.

Shu sababli Bondarko yondashuvi funksional sintaksis uchun juda qulay nazariy asos beradi: Semantik kategoriya → funksional-semantik maydon → markaz/periferiya → morfologik vositalar + sintaktik vositalar + leksik vositalar → nutqdagi funksiyasi. Mazkur holatda muayyan grammatik ma’no faqat bitta grammatik shakl orqali emas, balki markaziy

va periferik vositalarning o‘zaro tizimi orqali ifodalanishi mumkin. Bu tamoyil o‘zbek tilidagi funksional-semantik kategoriyalarni tadqiq etishda ham samarali metodologik asos bo‘la oladi.

Funksional sintaksisning zamonaviy rivojlanish bosqichida kognitiv lingvistika yondashuvi ham muhim o‘rin egallaydi. R. Lankager, J. Lakoff va K. Favukonniyer kabi olimlar sintaktik shakllarning inson tafakkuri, konseptualizatsiya jarayoni va bilim tuzilmalari bilan bog‘liqligini tadqiq etganlar. Kognitiv yondashuv sintaktik birliklarni mustaqil formal konstruksiyalar sifatida emas, balki insonning borliqni idrok etishi va konseptual tarzda tashkil etishi bilan bog‘liq hodisa sifatida izohlash imkonini beradi. Natijada sintaksis, semantika va kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi munosabat kompleks tadqiqot obyekti sifatida shakllanadi. Funksional sintaksisning zamonaviy yo‘nalishlaridan yana biri matn va diskurs sintaksisidir. Bunda alohida gapning ichki tuzilishidan tashqari, uning matn tarkibidagi vazifasi, boshqa gaplar bilan bog‘lanishi, tema-rema taraqqiyoti va kommunikativ davomiyligi o‘rganiladi. Bu yondashuvlarni birlashtiruvchi umumiy jihat — sintaktik shakl, mazmun va funksiyaning uzviyligidir. Demak, zamonaviy funksional sintaksis sintaktik birlikni faqat strukturaviy birlik sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi, ma’lum semantik mazmunni ifodalovchi va konkret nutqiy vaziyatda funksional qiymat kasb etuvchi birlik sifatida o‘rganadi.

Osiyo davlatlarida — Pekin universiteti, Seoul Milliy universiteti, Tokyo universiteti, Hoji Bayram universiteti (Turkiya), Al-Farobi nomidagi Qozog‘iston milliy universiteti, Xo‘jand davlat universiteti kabi ilmiy maskanlarda turkiy tillar sintaksisi, gapning pragmatik-funksional tabiatiga doir tadqiqotlar keng yoritilgan. Turkiy tillarda tema-rema munosabatlari, gapning kommunikativ turlari, ergativlik va aktantlar tizimi, so‘z tartibining funksional imkoniyatlari, sintaktik variantlarning stilistik qiymati xalqaro miqyosda muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan.

O‘zbek tilshunosligida ham funksional sintaksis bo‘yicha tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan. Ayniqsa, tadqiqotlarning aksariyati O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat universiteti, Andijon davlat universiteti va Farg‘ona davlat universitetida o‘zbek sintaksisining funksional-semantik tizimi, predikativ birliklarning kommunikativ xususiyatlari, gapning vazifaviy talqini, intonatsiya hamda tema-rema munosabatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilganini alohida qayd etish mumkin. Xususan, A.Nurmonov, N.Mahmudovlarning mazmuniy sintaksisga oid [10,149. 11,292. 12,324-403], N.Turniyozov va K.Turniyozovalarning funksional sintaksisga bag‘ishlangan tadqiqotlari[14,105], R.Sayfullayevaning qo‘shma gaplarning formal-funksional talqini, M.Qurbonovaning sodda gap qurilishiga formal-funksional yondashuvi[9.181], M.Abuzalovaning sodda gapning qurilish qoliplari va nutqiy voqelanishiga oid izlanishlari, R.Bobokalonovning funksional-semantik shakllangan so‘z-gaplar tadqiqi, O.Bozorovning gapning kommunikativ tuzilishiga bag‘ishlangan ishlari hamda boshqa tadqiqotchilarning izlanishlarini alohida ta’kidlash mumkin. Yuqoridagi olimlarning ishlari o‘zbek sintaksisida formal-struktur tahlildan funksional, semantik va kommunikativ tahlilga o‘tish jarayoni shakllanganini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

O‘zbek tili funksional sintaksisini jahon tilshunosligidagi mavjud konsepsiyalar bilan qiyosiy o‘rganish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi so‘z tartibining kommunikativ funksiyasi, tema-rema munosabatlarining matn shakllanishidagi o‘rni, sintaktik variantlarning pragmatik xususiyatlari, valentlik va aktantlar tizimi hamda sintaktik konstruksiyalarning kognitiv asoslarini kompleks tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilshunosligida funksional sintaksis bo‘yicha shakllangan ilmiy tajriba mazkur yo‘nalishni xalqaro nazariyalar bilan qiyosiy va integrativ asosda rivojlantirish uchun yetarli metodologik zamin yaratadi. jahon va o‘zbek tilshunosligida funksional sintaksisning shakllanishi ko‘p bosqichli va ko‘p yo‘nalishli ilmiy jarayon ekanligini ko‘rsatdi.

Funksional sintaksisning asosiy metodologik xususiyati sintaktik birlikni faqat formal-strukturaviy obyekt sifatida emas, balki muayyan semantik mazmunni ifodalovchi, kommunikativ vazifani bajaruvchi va konkret nutqiy vaziyatda funksional qiymat kasb etuvchi birlik sifatida o‘rganishdan iborat.

O‘zbek tilshunosligida funksional sintaksisga oid mavjud tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning muayyan nazariy va ilmiy bazasi shakllanganligini ko‘rsatadi. Kelgusida jahon tilshunosligidagi zamonaviy funksional konsepsiyalarni o‘zbek tilining milliy va tipologik xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish orqali funksional sintaksisning nazariy-metodologik asoslarini yanada takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mathesius V. On Linguistic Characterology with Illustrations from Modern English. // A Prague School Reader in Linguistics. Bloomington: Indiana University Press, 1964. B. 59–67.

2.Firbas J. Functional Sentence Perspective in Written and Spoken Communication. Cambridge: Cambridge University Press, 1992.

3.Daneš F. Functional Sentence Perspective and the Organization of the Text. In: Daneš F. (ed.). Papers on Functional Sentence Perspective. Prague: Academia; The Hague–Paris: Mouton, 1974. P. 106–128.

4.Halliday M.A.K., Matthiessen C.M.I.M. Halliday’s Introduction to Functional Grammar. 4th ed. London: Routledge, 2014. 808 p.

5.Fillmore Ch.J. The Case for Case. // Universals in Linguistic Theory. New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968.

6.Bondarko A.V. Functional Grammar: A Field Approach. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 1991. 207 p.

7.Hopper P.J., Thompson S.A. Transitivity in Grammar and Discourse. // Language. 1980. Vol. 56, No. 2. P. 251–299.

8.Firbas J. On the Concept of Communicative Dynamism in the Theory of Functional Sentence Perspective. // Sborník prací Filosofické fakulty Brněnské univerzity. 1971. Series Linguistica A, 19. P. 135–144.

9. Kurbonova M. Formal-funksional tahlil va soda gap.–Toshkent: «Bookmany print», 2025. – B. 181.
10. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 149
11. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент: Фан, 1992. – Б. 292.
12. Нумонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: «Академнашр», 2012. – Б. 324-403.
13. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўшма гапларнинг шакл-вазифавий (формал-функционал) талқини: Филол.фанлари д-ри. … дисс.автореф. – Тошкент, 1993. – 51 б.
14. Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш. –Тошкент: Фан, 2003. – Б. 105.